


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70530401 – *Gidrologiya*
magistratura mutaxassisligining**

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil «01» 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyrutmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|------------|--|------------|
| 1. | Umumiy tavsifi..... | 4 |
| 1.1. | Qo‘llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | Malaka talabining qo‘llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatlarining tavsifi..... | 4 |
| 1.2.1. | Kasbiy faoliyatining sohalari | 4 |
| 1.2.2. | Kasbiy faoliyatlarining obyektlari..... | 4 |
| 1.2.3. | Kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. | Kasbiy vazifalari..... | 5 |
| 2. | Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar | 7 |
| 3. | Ilmiy faoliyatga qo‘yiladigan talablar..... | 8 |
| 4. | Fanlar katalogining tuzilishi | 9 |
| | Bibliografik ma’lumotlar..... | 10 |
| | Kelishuv varag‘i..... | 11 |

1. Umumiy tasnifi

70530401 – Hidrologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **70530401 – Hidrologiya** mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

70530401 – Hidrologiya - “Fizika va tabiiy fanlar” ta‘lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, barcha ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, Hidrometeorologiya xizmati markazida, viloyatlar boshqarmalarida faoliyat ko‘rsatish; gidrometeorologiya observatoriyalari, stansiyalari, postlari, laboratoriyalarida kompleks gidrologik kuzatishlarni tashkil etish; Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, ularning bo‘limlari, Suv xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar, turli shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarida gidrologik masalalarni yechishga oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalari;

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalari;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari;
ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog‘liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;
turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini;
tashkiliy-boshqaruv obyektlari;
tabiiy suv resurslarini baholash va ulardan samarali foydalanishni nazorat qiluvchi tashkilotlar.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot va pedagogik;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *konsalting xizmati;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *turli xizmatlar ko‘rsatish kabilarni o‘z ichiga oladi.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

70530401 – Gidrologiya mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma‘ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanib ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

gidrologik faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

gidrologik faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo‘lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

axborotlarni yig‘ish va ularni qayta ishlash;

gidrologik o‘zgarishlar ularning ta‘sirini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish, gidrologik oqibatlarini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

gidrologik masalalar yuzasidan ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari nuqtai nazarini o‘rganish borasida tahliliy ishlar olib borish;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

Turli xizmatlar ko‘rsatish:

aholi obyektlarini xavfli gidrologik hodisalardan oldindan ogohlantirish;

pullik ta‘lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o‘z faoliyatida me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

raqamli axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lish;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha statistik va matematik modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

daryo havzalari va hududlar bo‘yicha suv resurslarini baholash va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilish;

mintaqalar, hududlar va daryo havzalari bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan ta’minlash rejalarni ishlab chiqish, gidrologiya sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi gidrologik omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo‘lish;

o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi.

3. Ilmiy faoliyatga qo‘yiladigan talablar.

Ilmiy faoliyat ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o‘zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta’lim muassasalarida atrof-muhit muhofazasi

sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

Ilmiy pedagogik ishlar:

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish):

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|-------------|-------------------------------|---|--|-----------------------|-----------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 1080 | 36 | |
| 1.01 | ILTM1106 | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi | 180 | 6 | 1 |
| 1.02 | MFOM1106 | Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi | 180 | 6 | 1 |
| 1.03 | QG1106 | Quruqlik gidrologiyasi | 180 | 6 | 1 |
| 1.04 | NAG1106 | Nazariy va amaliy gidrometriya | 180 | 6 | 1 |
| 1.05 | MG1206 | Muhandislik gidrologiyasi | 180 | 6 | 2 |
| 1.06 | GJMM1206 | Gidrologik jarayonlarni matematik modellashtirish | 180 | 6 | 2 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 720 | 24 | 2,3 |
| | | Jami | 1800 | 60 | |
| | Kvalifikatsiya | Gidrolog, pedagog - tadqiqotchi | | | |
| 3.00 | | Ilmiy faoliyat | 1800 | 60 | |
| 3.01 | | Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti | 600 | 20 | 1,2,3,4 |
| 3.02 | | Ilmiy tadqiqot ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish | 1200 | 40 | 1,2,3,4 |
| | | HAMMASI | 3600 | 120 | |

Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch soʻzlar:

kasbiy faoliyat turi, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy oʻquv reja va oʻquv dasturlari, profil, oʻqib-oʻrganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, magistraturaning oʻquv jarayoni, iqtisodiyot, mustaqil taʼlim, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayoni, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish, hisob, tahlil va nazorat, konsalting xizmati, axborot-tahliliy faoliyat, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, oʻquv fanlari bloki, oliy taʼlim muassasasi, taʼlim jarayoni, sel toshqinlari, muhandislik gidrologiyasi, gidrologik jarayonlarni matematik modellashtirish, quruqlik suvlari monitoringi, suv resurslari muhofazasi, suv resurslaridan samarali foydalanish, fan ishchi dasturlari, zamonaviy oʻlchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot usullari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston Milliy universiteti



Rektor  I.U. Madjidov

2024 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**O'zbekiston Respublikasi
Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari**



Direktor  M. Boltabayev

Vazir o'rinbosari  R. Qarshiyev



» _____ 2024 - yil « _____ » _____

M.O'.

**Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti rektori**

Rektor  R.I. Xalmuradov



2024 - yil « _____ » _____

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
70530401 – Hidrologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va
o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy
kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ___ ” _____ 2024 -yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari R.J.Qarshiyev, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori R.I.Xalmuradov birgalikda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70530401 – Hidrologiya magistratura mutaxassisligining Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O‘zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta‘limning me‘yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024-yil 20-maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi
Suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari

R.J. Qarshiyev

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
rektori

R.I. Xalmuradov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
rektori

I.U. Madjidov

70530401-Gidrologiya mutaxassisligini xalqaro tajribalar bilan qiyosiy taqqoslash to'g'risidagi tahliliy ma'lumot

| № | Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU O'zbekiston Respublikasi | TOP-300 talidagi Universitetlarda O'qitiladigan | | |
|-------------------------------|--|---|---|--|
| | Fan nomi | Fanlar | | |
| 70530401 – Gidrologiya | | | | |
| 1 | Quruqlik gidrologiyasi | Hydrology groundwater. Hydrology (Oklahoma State University-801) | Fundamentals of surface water (The University of Arizona-285) | Гидрология материков (МГУ им. Ломоносова-75) |
| 2 | Nazariy va amaliy gidrometriya | Remote Sensing of Water Resources (Oklahoma State University) | Stochastic methods in Subsurface Hydrology (The University of Arizona) | Антропогенные изменения речного стока (МГУ им. Ломоносова) |
| 3 | Muhandislik gidrologiyasi | Water Resources Planning and Management (Oklahoma State University) | Water Resources Systems Planning and Management (The University of Arizona) | Опасные гидрологические процессы (МГУ им. Ломоносова) |
| 4 | Gidrologik jarayonlarni matematik modellashtirish | | Fundamentals of Water Quality (The University of Arizona) | Моделирование гидрологических процессов (МГУ им. Ломоносова) |

Gidrometeorologiya fakulteti
dekani, g.f.f.d.

Quruqlik gidrologiyasi
kafedrasi mudiri, g.f.d.



dots. Raxmonov K.R.

dots. Yunusov G'.X.